

YASHIL IQTISODIYOT VA SOĞLIQNI SAQLASH

Óralova Nodirabegim Ótkir qizi

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

MI-62 guruh talabasi

nodirabegimoralova04@gmail.com

Xursandov Komiljon Maxmatkulovich

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

PhD dotsent


Annotatsiya: Ushbu maqolada mamlakatimizda va xorij davlatlarida global mavzuga aylangan yashil iqtisodiyotni rivojlantirish va modernizatsiyalash chora-tadbirlari, sohada yaratilgan keng imkoniyatlar, shart-sharoitlar, shu bilan bir qatorda amalga oshirilishi kutilayotgan rejalar xususida statistic, analitik, induktiv, deduktiv usullar va foydalanilgan adabiyotlar doirasida mavzu to'liq yoritib berildi.

Kalit so'zlar: iqtisodiyot, yashil iqtisodiyot, barqaror rivojlanish, strategiya, yashil texnologiya, sog'liqni saqlash, ekologik taqchillik, resurslar, iqtisodiy siyosat dastaklari.

Kirish. Yashil iqtisodiyotni rivojlantirishga bag'ishlangan ilk ilmiy tadqiqotlar XX asrning 70-yillaridan boshlangan. Jumladan, 1972-yilda Stokgolmda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish va ekologiya muammolariga bag'ishlangan xalqaro konferensiyada atrof muhitni saqlab qolish va rivojlantirishga qaratilgan 26ta tamoyil ishlab chiqildi[1]. Iqtisodiy adabiyotda "yashil iqtisodiyot" tushunchasini ilk marotaba 1989-yilda[2] qollanilganiga qaramasdan uning mohiyati hozirga qadar turlicha talqin etiladi. Bir guruh tadqiqotchilar esa "yashil iqtisodiyot" bu- ekologik toza mahsulotlar yaratishga yo'naltirilgan rivojlanishning yangi bosqichiga otish hisoblanib, uning asosini sof yoki "yashil" texnologiyalar tashkil etadi deyilgan. "Yashil iqtisodiyot" tushunchasining keng tarqalgan, nisbatan toliq ta'rifi UNEP tomonidan ishlab chiqilgan bo'lib, "yashil iqtisodiyot"- bu "insonlar farovonligi va ijtimoiy tengligining yaxshilanishi, ekologik risklar va ekologik taqchillikni sezilarli darajada kamaytirish" ga olib keluvchi iqtisodiyotdir[3] deb ta'rif berilgan.

Asosiy qism. Mamlakatimizda "yashil iqtisodiyot" asosida barqaror rivojlanishni ta'minlash maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan 2019-yil 4-oktabrda tasdiqlangan "2019-2030-yillarda O'zbekiston Respublikasini "yashil iqtisodiyot"ga otish strategiyasi" muhim dasturiy amal hisoblanadi. Hozirgi kunda "yashil iqtisodiyot" masalalari bilan BMT huzuridagi turli tashkilotlar va qomitalar shugullanadi. Ular jumlasiga BMT Iqtisodiy va ijtimoiy masalalari

bóyicha departament (UN DESA), "Yashil iqtisodiyot" tashabbusi (GEI), "Yashil iqtisodiyot" bóyicha masalalarni tartibga solish guruhlarini kiritish mumkin. Jumladan, GEI óz faoliyatini 2008-yilda boshlagan bólib, BMT tizimidagi yigirmaga yaqin tashkilot, muassasalarni birlashtiradi. Shuningdek soǵliqni saqlash, aholining turmush darajasini ósishiga ham yashil iqtisodiyotning ahamiyati kattadir.



1-rasm. Yashil iqtisodiy siyosat mexanizmlari [muallif ishlanmasi]

Kórib turibsizki, mamlakatimizda energetika tizimi iqlim ózgarishiga óz ta'sirini ótkazmoqda, va shu bilan birga iqlim ózgarishi va salomatlikni tiklash uchun toza maishiy energiya texnologiyalaridan foydalanish yetarli darajada órganilmagan va bu yól qóllanilishi yaxshi samarasini beradi. Hukumatlararo (IPCC) imtiyozlarni yanada tizimli baholashni talab qiladi. Qóshimcha qilib iqlim, energetika va soǵliqni saqlash sohalariga ham investitsiyalarni jalb qilinishi ham maqsadga muvofiqdir. Mamlakatimizda qazib olinayotgan barcha yerosti boyliklarni qayta ishlash va iste'molga tayyor, eksportbop mahsulotlar ishlab chiqarishda ham havoning ifloslanishiga sabab bólmogda desak adashmaymiz. Vaholanki, agar yashil iqtisodiy innovatsion texnologiyalarni keng tadbiq qilinishi tufayli bu muammoni kamaytirish mumkin. Jahon soǵliqni saqlash tashkiloti tahlil va natijalariga kóra bu borada strategik chora-tadbirlarni ishga solish bóyicha dunyo mamlakatlarini hamkorlikka chaqirmogda.

XULOSA VA TAKLIFLAR. Yashil iqtisodiyot, ekologik yondashuv, va inson sog'ligini saqlash kabi masalalarda katta ahamiyatga ega.

Yashil iqtisodiyot asosida, energiyadan samarali foydalanish, atrof-muhitni saqlash, tabiatni resurslaridan oqilona foydalanish prinsiplari asosiydir. Bu prinsiplar bilan iqtisodiyotni ózgarishi nafaqat inson davlatga balki butun dunyoga ham samarali va saqlanadigan ekologik xizmatlarni ta'minlash imkoniyatlarini ochadi. Shuningdek, yashil iqtisodiyot aholi salomatligiga ham ta'sir ótkazadi.

Yashil iqtisodiyotning bir qator omillari mavjud:

1. Eng muhim omillardan biri energiya samarali ishlab chiqarish va uni tarqatishidir. Yashil energetika manbalarining rivojlantirilishi, energiya samaradorligini ko'paytirilishi va ishlab chiqarishda energiya hajmini kamaytirish uchun innovatsion texnologiyalardan samarali foydalanish bu jarayonni yanada rivojlantiradi.

2. Yashil transport tizimi. Avtomobil va transport vositalari ishlatishda energiya samaradorligini oshirish, emissiyalarni kamaytirish, masofadan turib tijorat tovarlarini yetkazib berish, shuningdek, avtomobil ishlab chiqarishda foydali texnologiyalardan foydalanish kabi tadbirlar ushbu yo'nalishga mansubdir.

3. Ommaviy sohani samarali ta'minlash. Suv resurslaridan samarali foydalanish, atrof-muhitni saqlash, suvdan oqilona foydalanishni, suv sarfiyatini kamaytirish, qishloq xo'jaligini innovatsion texnologiyalar bilan rivojlantirish kabi masalalar bu yo'nalishni rivojlantirishda o'rin tutadi.

Yashil iqtisodiyotning rivojlantirilishi bilan, fuqarolarning sog'lig'ini saqlash, atrof-muhitni saqlash va ekologik xavfsizlikni ta'minlash uchun samarali va mustahkam muhit yaratish imkoniyatiga ega bo'ladi. Bu esa inson salomatligi, texnologiyalar va innovatsiyalar uchun qo'llaniladigan katta imkoniyatlarni o'z ichiga oladi.²⁹

"Innovations in Science and Technologies"

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati:

- 1 Декларация Конференции ООН по проблемам окружающей человека среды от 16.06.1972// Консультант плюс 4012.00.32 2002-2013.
- 2 Blueprint for green economy: David Pearce, Anil Markandya and Edward B. Barnier. Eartscan, London, Great Britain, 1989.192pp.
- 3 Навстречу "зелёной" экономике: пути к устойчивому развитию и искоренению бедности/ Штайнер А. ЮНЕП/Грид Арендал, 2011. С.17
- 4 М.Т. Asqarova, J J. Jamolov, X.S Xadjayev. Yashil iqtisodiyot. (Darslik).- T.: "Innovatsion rivojlanish nashriyot- matbaa uyi", 2022.- 312bet.